



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

№4

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2025



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 4-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров  
PhD, доцент И.М.Пардаева  
PhD, И.Ш.Эрназарова

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

**И.Б.Маттиев** – СамИСИ профессори, DSc

<b>Layli Baxtiyorovna Navruz-zoda</b> Kichik biznes raqobatbardoshligini baholovchi sun'iy intellekt kompozit indeksi	159
<b>МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ</b>	
<b>Iltom Begmatdulobovich Mattiyev</b> Stressni boshqarish va sog'lom hayot tarzi odatlari	163
<b>Nargiza Muzafarovna Babaeva</b> Biznesni muvaffaqiyatli bo'lishida ta'lim va tajribaning ta'sir darajasi tahlili	167
<b>Камилла Бахромовна Суюнова, Шахзода Абборовна Фазилова</b> Маркетинг инноваций как фактор динамичного роста отраслей экономики Узбекистана	172
<b>Xilola Nematovna Ochilova</b> Lavozimlar greydingining mohiyati hamda davlat va nodavlat tashkilotlarida lavozimlar greydingi tizimini qo'llanilishi	176
<b>Nigina Ma'rufovna Usmanova, Abdulxofiz Jamshid o'g'li Hamrayev</b> Sun'iy intellektning inson resurslarini boshqarishni takomillashtirishga ta'siri	182
<b>Azizjon Isroiljonovich Ibroximov</b> Korxonada xodimlarini boshqarishda KPI tizimidan samarali foydalanish yo'llari	188
<b>ИНВЕСТИЦИЯ ВА РЕЖАЛАШТИРИШ</b>	
<b>Насиба Акбаржонова Усманова, Жахонгир Санжарович Каримов</b> Проблемы при планировании проекта. иерархическое распределение работ как ключ к решению	191
<b>БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ</b>	
<b>Rahmonkul Hamidovich Djalilov</b> Respublikamizda bilvosita soliqlar auditining nazariy masalalari	195
<b>Бобур Фарходович Боронов, Дилноза Гафуровна Худайназарова, Хушвақт Мансурович Ёдгоров</b> Фармацевтика корхоналарининг бухгалтерия ҳисоби субъектлари сифатидаги ташкилий-ҳуқуқий масалалари	198
<b>Анвар Нематович Холиқулов, Азамат Ҳамроқулович Рахимов</b> Автомобиль сервис билан шуғулланадиган субъектларнинг самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичларнинг омилли таҳлили	203
<b>Olimjon G'ayrat o'g'li Fattoyev</b> Aholi daromadlari tarkibi va dinamikasi tahlili asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni takomillashtirish	207
<b>Насиба Акбаржонова Усманова, Асель Армановна Сулейманова</b> Анализ востребованных компетенций на рынке труда и их влияние на HR-стратегии компаний.	211
<b>ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА</b>	
<b>Akram Abduraxmonovich Azizqulov</b> G'azzoliy ta'lim jarayonida shogirdning odobi xususida . (Abu Homid G'azzoliyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarida shogird odobi xususida)	215
<b>Sarvar Ayubovna Isxakova, Shaxzoda Shuxratovna Amriyeva</b> Oliy ta'lim tizimining samaradorligini oshirish yo'nalishlari	220
<b>ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР</b>	
<b>Мамаюнус Қаршибоевич Пардаев, Обид Мамаюнусович Пардаев</b> Метод ва методологиянинг мазмуни ва фарқлари Иқтисодиётга оид атамаларнинг таърифлари	225

Sarvar Ayubovna Isxakova – SamISI dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
Shaxzoda Shuxratovna Amriyeva – SamISI assistenti

## OLIV TA'LIM TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, ta'lim mazmunini zamon talablari asosida yangilash, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hamda sohani jahon standartlari darajasida rivojlantirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim tizimi, ta'lim faoliyati, ta'lim sifati, samaradorlik, oliy ta'lim tizimi samaradorligi, institutsional omillar, inson kapitali, innovatsion infratuzilma.

**Kirish** Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari bugungi kunda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim o‘rin tutmoqda. Mazkur jarayonlarning asosiy maqsadi – oliy ta'limning samaradorligini oshirish, ta'lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga yetkazish, hamda inson kapitalini rivojlantirish orqali jamiyatning intellektual salohiyatini mustahkamlashdan iboratdir. Oliy ta'lim tizimi nafaqat bilim beruvchi, balki innovatsion g‘oyalar generatori, zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida ham shakllanmoqda.

Hozirgi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi jadal o‘zgarayotgan tashqi muhitga moslashish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, texnologik yangiliklarni joriy etish kabi murakkab vazifalarni bajarishi talab etiladi. O‘zbekiston oliy ta'lim muassasalari ham bu jarayondan chetda emas – ular yangi ta'lim texnologiyalari, raqamli transformatsiya, xalqaro akkreditatsiya va ilmiy hamkorlik asosida faoliyat yuritmoqda. Ta'lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha davlat darajasida qabul qilinayotgan strategik hujjatlar — “Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, “Inson kapitalini rivojlantirish strategiyasi”, shuningdek, “Ta'lim to‘g‘risida”gi yangi Qonun — sohada chuqur islohotlar uchun huquqiy va tashkiliy asos yaratmoqda. Shunga qaramay, tizimda hali hal etilishi lozim bir qator muammolar mavjud: ilmiy-tadqiqot faoliyatining yetarli darajada moliyalashtirilmasligi, ilmiy infratuzilmaning sust rivojlanishi, o‘qituvchilarning malakasi va ilmiy darajasining yetarli bo‘lmasligi, o‘quv jarayonida innovatsion yondashuvlarning to‘liq joriy etilmagani shular jumlasidandir. Vaholanki, amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasi, eng avvalo, inson kapitalining tayyorgarlik darajasi, yangiliklarni qabul qilishga tayyorligi va innovatsion faoliyatga jalb etilganlik darajasiga bog‘liq. Shu sababli oliy ta'lim tizimining samaradorligini oshirish masalasini o‘rganish bugungi kunda dolzarb va ustuvor yo‘nalishlardan biridir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Oliy ta'lim tizimining samaradorligini oshirish masalasi jahon va mahalliy olimlar ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan bo‘lib, mazkur muammo ta'lim sifati, boshqaruv samaradorligi, innovatsion yondashuvlar hamda mehnat bozori talablari bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilgan. Jahon ilmiy adabiyotlarida (YuNESKO, Jahon banki, OESR materiallarida)<sup>1</sup> oliy ta'lim samaradorligi, avvalo, ta'lim sifati va natijadorligi bilan belgilanishi ta’kidlanadi. Bu jarayonda ta'lim dasturlarining zamonaviyligi, kompetensiyaga asoslangan o‘qitish, talabalarning mustaqil ta'lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim omil sifatida qaraladi. Qator tadqiqotlarda oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini oshirishda boshqaruv tizimini takomillashtirish, akademik va moliyaviy mustaqillikni kengaytirish, strategik rejalashtirishni joriy etish asosiy yo‘nalish sifatida ko‘rsatilgan.<sup>2</sup> Mualliflar ta'lim muassasalarida samarali menejment modellari joriy etilgan taqdirda ta'lim sifati va ilmiy salohiyat sezilarli darajada o‘shirishni ta’kidlaydilar. Mahalliy olimlarimiz Xodjayeva A.X., Abdurahmonov B.M., Tursunov Sh.A. ilmiy asarlarida<sup>3</sup> raqamli texnologiyalar va innovatsion ta'lim usullari oliy ta'lim

<sup>1</sup>UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action for the Implementation of Sustainable Development Goal 4. Paris: UNESCO Publishing, 2016; OECD. Education at a Glance 2023: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing, 2023.

<sup>2</sup>Alekseeva I.A. Человеческий капитал в условиях инновационного управления вузом. Москва: Издательство МГУ, 2020; Rochev K.V. Методы индексной оценки эффективности педагогической и научной деятельности профессорско-преподавательского состава вузов. Санкт-Петербург: Наука, 2021.

<sup>3</sup>Xodjayeva A.X. Raqamli universitet modeli va oliy ta'limda transformatsiya jarayonlari. Toshkent: Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi nashriyoti, 2022; Abdurahmonov B.M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va ularning mehnat bozoriga

samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida qayd etiladi. Masofaviy ta’lim, elektron ta’lim platformalari, gibrid o’qitish modellari ta’lim jarayonining ochiqligi va samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, Makhmudov M.<sup>1</sup> o’z tadqiqotlarida oliy ta’lim tizimini isloh qilish, uni mehnat bozori talablariga moslashtirish, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Ayniqsa, kadrlar tayyorlashda amaliy ko’nikmalarni rivojlantirish, dual ta’lim elementlarini joriy etish samaradorlikni oshirishning asosiy yo’nalishlaridan biri sifatida ko’rsatiladi. Xulosa qilib aytganda, tahlil qilingan adabiyotlar oliy ta’lim tizimining samaradorligini oshirish ko’p qirrali jarayon ekanligini ko’rsatadi. U ta’lim sifati, boshqaruv, innovatsiyalar, raqamlashtirish hamda mehnat bozori bilan uyg’unlikni ta’minlash orqali amalga oshirilishi lozim.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda oliy ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan bo’lib, uning ilmiy asoslangan natijalariga erishish uchun kompleks metodologik yondashuv qo’llanildi. Tadqiqot jarayonida sifat va miqdoriy tahlil usullari uyg’unlashtirildi, bu esa ma’lumotlarning ishonchliligi va aniqligini ta’minladi. Quyida qo’llanilgan asosiy ilmiy usullar keltiriladi.

**Tahlil va natijalar.** O’zbekiston oliy ta’lim tizimi so’nggi yillarda tub islohotlar bosqichini boshdan kechirmoqda. Bu islohotlar, avvalo, ta’lim sifati, qamrov darajasi, ilmiy natijadorlik va raqamli transformatsiya jarayonlari bilan bog’liq. Tadqiqot davomida 2018–2024 yillar oralig’idagi statistik ma’lumotlar, xalqaro reytinglar va ekspert fikrlari asosida tizim samaradorligi baholandi.

2018–2024 yillar davomida O’zbekiston oliy ta’lim muassasalari soni, talabalarining qamrov darajasi va xalqaro hamkorlik loyihalari sezilarli o’sishga erishdi.

**1-jadval**

**2018–2024 yillarda O’zbekistonda oliy ta’lim tizimining rivojlanish holati**

Ko’rsatkichlar	Yillar				2024 y. 2018 y.g.a nisbatan o’zgarishi
	2018	2020	2022	2024	
OTMlar soni (ta)	77	108	160	206	2.7 marta
Ulardagi talabalar soni (ming)	288	517	850	1 020	3.5 marta
Xorijiy OTMlar filiallari soni	6	12	25	33	5.5 marta
Doktorantlar soni	1 200	2 100	2 950	3 400	2.8 marta
Bitiruvchilarning bandlik darajasi	61	68	74	79	+18 %

**Manba:** Uzbekiston Respublikasi davlat statistika qo’mitasi ma’lumotlari.

1-Jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, Uzbekistonda 2018-2024 yillar davomida oliy ta’lim muassasalari sonining 2,7 martaga oshishi natijasida ta’lim qamrovi 9 foizdan 38 foizga yetgan. Bu esa inson kapitali shakllanishida muhim sifat bosqichining yuzaga kelganini ko’rsatadi. Shu bilan birga, bitiruvchilarning bandlik darajasining 79 foizgacha o’sishi ta’limning mehnat bozoriga yaqinlashayotganini anglatadi.

So’nggi yillarda raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish oliy ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida qaralmoqda. Shu sababli Uzbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalariga “Raqamli universitet”, “Elektron dekanat”, “Onlayn kutubxona” va “Masofaviy ta’lim” tizimlari 2020-yildan boshlab faol joriy etilmoqda (2-jadval).

2- jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga ko’ra, so’nggi to’rt yil ichida onlayn ta’lim va elektron resurslardan foydalanish keskin oshgan. Bu jarayon o’qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish va ta’lim sifati yaxshilashda hal qiluvchi omil bo’lgan. Shu bilan birga, ekspertlar ta’lim samaradorligini oshirishda raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi, ayniqsa hududiy OTMlarda texnik resurslar cheklanganini qayd etgan.

ta’siri. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2021; Tursunov Sh.A. Oliy ta’limda sifat menejmenti va xalqaro akkreditatsiya tizimlari. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022.

<sup>1</sup>Makhmudov M. Universitet–ishlab chiqarish–ilmiy markaz hamkorligi: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2023.

2-jadval

2020–2024 yillarda Uzbekistonda oliy ta’lim tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish natijalari

Ko’rsatkichlar	Yillar			2024 y. 2020 y. nisbatan o’zgarishi (%)
	2020	2022	2024	
Masofaviy ta’lim kurslari soni	420	1 050	2 200	+423 %
Elektron kutubxona resurslari (ming nom)	35	62	110	+214 %
Onlayn darslarda ishtirok etgan talabalar (%)	15	42	68	+53 %
O’qituvchilarning raqamli kompetensiyasi (ekspert bahosi, %)	38	56	71	+33 %

**Manba:** Oliy ta’limda raqamli transformatsiya monitoringi hisobotlari (2021–2024), [6], [7].

Tadqiqot doirasida 20 nafar oliy ta’lim muassasasi rahbari va professor-o’qituvchilardan iborat ekspertlar guruhi ishtirokida so’rov o’tkazildi. Ekspertlar oliy ta’lim samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni baholadilar. So’rovnomada ishtirok etganlar tomonidan oliy ta’lim tizimi samaradorligini oshirishda inson kapitaliga investitsiya kiritishni eng muhim omil sifatida e’tirof etilgan. Bu, birinchi navbatda, o’qituvchilarning malaka oshirish tizimini takomillashtirish va innovatsion pedagogik yondashuvlarni keng joriy etish zarurligini taqozo etadi.

O’zbekiston oliy ta’lim tizimining umumiy samaradorligini baholash uchun iqtisodiy, ijtimoiy va innovatsion ko’rsatkichlarni birlashtirgan integral indeks ishlab chiqildi. Quyidagi 3-jadvalda bu indikatorlar keltirilgan.

3-jadval.

Oliy ta’lim samaradorlik indeksining tarkibiy tuzilmasi (2024-yil holati)

Samaradorlik turi	Asosiy indikatorlar	Baholash mezon (0–1)	Indeks qiymati
Iqtisodiy samaradorlik	Bitiruvchilarning daromadi, investitsiya qaytarimi	0.85	0.78
Ijtimoiy samaradorlik	Ta’lim qamrovi, madaniy va intellektual salohiyat	0.80	0.74
Innovatsion samaradorlik	Ilmiy maqolalar, grantlar, patentlar soni	0.70	0.66
Boshqaruv samaradorligi	Ichki sifat tizimi, KPI ko’rsatkichlari	0.75	0.70
<b>Umumiy integral indeks</b>	—	—	<b>0.72</b>

**Manba:** Mualliflar hisob-kitoblari [1–15] asosida.

Amalga oshirilgan hisob-kitoblar oliy ta’lim tizimining umumiy samaradorligini baholashning Integral indeks qiymati **0,72** ni tashkil etishini ko’rsatdi, bu esa oliy ta’lim tizimining o’rtacha yuqori samaradorlik darajasida ekanligini bildiradi. Eng yuqori natija iqtisodiy samaradorlikda (0,78), eng past ko’rsatkich esa innovatsion faoliyat (0,66) bo’yicha qayd etilgan. Bu natija quyidagicha xulosalarni chiqarishga turtki bo’ldi:

- O’zbekiston oliy ta’lim tizimi so’nggi olti yilda miqdoriy o’sish bosqichini bosib o’tdi, ammo sifat ko’rsatkichlarini barqaror saqlash uchun inson kapitaliga e’tibor kuchaytirilishi zarur.
- Raqamli transformatsiya ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o’ynagan, biroq texnik infratuzilma va pedagogik tayyorgarlikni yanada mustahkamlash talab etiladi.
- Innovatsion boshqaruv va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali universitetlarning global raqobatbardoshligini oshirish zarur.

- Inson kapitali, raqamli kompetensiya va ilmiy salohiyatni uyg'unlashtirgan kompleks model oliy ta'lim samaradorligini oshirishning poydevori bo'lib xizmat qilishi lozim.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari oliy ta'lim tizimidagi ijobiy o'zgarishlarga qaramay, ayrim muhim jihatlari hali ham takomillashtirishni talab qilishini ko'rsatdi. Jumladan, professor-o'qituvchilar malakasining yetarli darajada yangilanmasligi, ilmiy faoliyat samaradorligining pastligi, o'quv dasturlarining mehnat bozori ehtiyojlariga to'liq moslashmaganligi tizimning sifat jihatidan o'sishini cheklab turuvchi omillardir.

Bizningcha, oliy ta'lim samaradorligini belgilovchi omillarni uchta asosiy blokka ajratish lozim: institutsional, inson kapitali va innovatsion infratuzilma.

**Institutsional omillar** – bu oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv tizimi, moliyaviy mustaqilligi, ichki sifat nazorati, xalqaro akkreditatsiyalardan o'tish darajasi va tashkiliy tuzilmaning moslashuvchanligidir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 2024-yilda mamlakatdagi 206 ta OTMdan atigi 25 tasi xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan, bu esa umumiy tizimning 12 foizini tashkil etadi. Shu sababli, xalqaro sifat standartlariga asoslangan ichki baholash tizimlarini joriy etish zarur.

**Inson kapitali omili** – bu o'qituvchilar, talabalar va ilmiy xodimlarning kasbiy salohiyati, innovatsion fikrlashi, raqamli kompetensiyasi hamda motivatsion omillarni o'z ichiga oladi. So'nggi yillarda o'qituvchilarning o'rtacha yoshi 47 dan 43 yoshgacha kamaygani, yosh mutaxassislar ulushi esa 23 foizdan 38 foizgacha oshgani kuzatilgan. Bu o'zgarishlar ta'lim tizimiga yangi g'oyalar va texnologiyalar kirib kelishiga imkon yaratmoqda. Shu bilan birga, malaka oshirish kurslarining mazmuni ham qayta ko'rib chiqilishi zarur, chunki mavjud dasturlar asosan nazariy yondashuvlarga tayanadi.

**Innovatsion infratuzilma** – bu ilmiy laboratoriyalar, startap markazlari, texnoparklar va grant tizimining rivojlanish darajasini ifodalaydi. 2024-yilda oliy ta'lim muassasalari tomonidan 130 ta startap loyihasi amalga oshirilgan bo'lsa-da, ularning faqat 35 tasi tijoratlashuv bosqichiga yetgan. Bu esa innovatsion faoliyatda uzluksizlik yetishmasligini anglatadi. Rivojlangan davlatlar tajribasidan ma'lumki, universitetlar nafaqat ta'lim beruvchi, balki innovatsion yechimlar ishlab chiquvchi va ularni iqtisodiyotga tatbiq etuvchi markazlar sifatida shakllanadi.

O'tqazilgan tadqiqot natijalari yana bir qator e'tibor berilishi lozim bo'lgan holatlarni ko'rsatdiki, ularning oliy ta'lim samaradorligini oshirish uchun ahamiyati juda yoqoridir. Jumladan:

Raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish. Raqamli pedagogika, sun'iy intellekt asosida o'qitish va masofaviy ta'lim platformalaridan samarali foydalanish o'qituvchi faoliyatining ajralmas qismi bo'lishi kerak. Bu borada 2024-yilda 71 foiz o'qituvchining raqamli savodxonlik darajasi “yetarli” deb baholangan, biroq 29 foiz o'qituvchi uchun maxsus o'quv dasturlari talab etiladi.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tijoratlashtirish. Universitetlarda ishlab chiqilayotgan ilmiy ishlanmalar va patentlarning atigi 15 foizi real sektorga tatbiq etilgan. Ilmiy faoliyat samaradorligini oshirish uchun grantlar sonini ko'paytirish, universitet–biznes hamkorligini mustahkamlash lozim.

Xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish. 2024-yil holatiga ko'ra, 70 dan ortiq OTM xalqaro qo'shma dasturlarni amalga oshirmoqda. Ammo ulardan faqat 18 tasi ikki diplomli dasturlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun chet el universitetlari bilan qo'shma ta'lim dasturlarini kengaytirish, professor-o'qituvchilar va talabalar akademik mobilligini rag'batlantirish zarur.

Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi. Bitiruvchilarning bandlik darajasi 79 foizga yetgan bo'lsa-da, ishlab chiqarish korxonalari bilan qo'shma amaliyot dasturlari yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. 2025-yilgacha oliy ta'lim muassasalari va 1000 dan ortiq sanoat korxonalari o'rtasida tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, oliy ta'lim tizimining iqtisodiy samaradorligi ortgan sari, ijtimoiy samaradorlik ham barqarorlashadi. Bitiruvchilarning o'rtacha daromadi 2018–2024 yillarda 2,3 baravar oshgan bo'lsa-da, ularning kasbiy qoniqish darajasi hali ham past (62 foiz atrofida). Bu holat ta'lim sifati va mehnat bozori o'rtasidagi muvofiqlikni yanada mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

**Xulosa va takliflar.** Umuman olganda, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi o‘z rivojlanishining miqdoriy bosqichidan sifat bosqichiga o‘tish jarayonidadir. Aytiganlardan kelib chiqqan holda, oliy ta’lim muassasalari samaradorligini oshirish uchun quyidagi ilmiy asoslangan xulosalarni shakllantirdik:

Oliy ta’lim tizimini boshqarishda inson kapitaliga yo‘naltirilgan modelni shakllantirish, bunda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi hamkorlik markaziy o‘rinda bo‘ladi.

Raqamli transformatsiyani jadallashtirish orqali ta’lim jarayonining shaffofligi, ochiqligi va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatini iqtisodiy qiymat yaratish mexanizmi bilan bog‘lash, ya’ni natijaviylikka yo‘naltirilgan grant tizimini kengaytirish.

Oliy ta’limni xalqaro ta’lim maydoniga integratsiya qilish, bu orqali xalqaro reytinglarda O‘zbekiston universitetlarining mavqeini oshirish.

Mazkur yo‘nalishlarning izchil amalga oshirilishi natijasida oliy ta’lim tizimining ijtimoiy, iqtisodiy va innovatsion samaradorligi kompleks tarzda ortadi, bu esa mamlakatning barqaror rivojlanishiga, inson kapitalining sifat jihatdan yuksalishiga olib keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:**

1. Becker G.S. *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education*. 3rd ed. Chicago: The University of Chicago Press, 1993.
2. Bloom B.S. *Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals*. New York: Longman, Green, 1956.
3. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). *Digital Agriculture Transformation in Central Asia: Regional Overview*. Rome: FAO Publications, 2021.
4. Abdurahmonov B.M. *Innovatsion ta’lim texnologiyalari va ularning mehnat bozoriga ta’siri*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2021.
5. Tursunov Sh.A. *Oliy ta’limda sifat menejmenti va xalqaro akkreditatsiya tizimlari*. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022.
6. Nazarova D.I. *Ta’lim monitoringi tizimi va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish yo‘llari*. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2023.
7. UNESCO. *Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action for the Implementation of Sustainable Development Goal 4*. Paris: UNESCO Publishing, 2016.
8. OECD. *Education at a Glance 2023: OECD Indicators*. Paris: OECD Publishing, 2023.
9. European Commission. *Modernisation of Higher Education in Europe: Academic Staff – 2020*. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2020.
10. Karimov A.A. *Inson kapitali va raqobatbardoshlik: O‘zbekiston iqtisodiy modeli*. Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsiyalar markazi, 2022.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. *PQ–3775-sonli qaror: Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida*. Toshkent: Prezident qarorlari to‘plami, 2018.

<p><b>С.Исхакова, Ш.Амриева</b></p> <p><b>Направления повышения эффективности системы высшего образования</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования системы высшего образования, обновления содержания образования в соответствии с современными требованиями, подготовки конкурентоспособных кадров и развития отрасли на уровне мировых стандартов.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> система образования, образовательная деятельность, качество образования, эффективность, эффективность системы высшего образования, институциональные факторы, человеческий капитал, инновационная инфраструктура.</p>	<p><b>S.Iskhakova, Sh.Amrieva</b></p> <p><b>Directions for increasing the efficiency of the higher education system</b></p> <p><b>Abstract.</b> This article discusses the issues of improving the higher education system, updating the content of education based on modern requirements, training competitive personnel, and developing the industry at the level of world standards.</p> <p><b>Keywords:</b> education system, educational activities, educational quality, efficiency, efficiency of the higher education system, institutional factors, human capital, innovative infrastructure.</p>
--	---

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.12.2025 йилда теришга берилди. 16.12.2025 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0143А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.